ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

DINIY EKSTREMIZM TUSHUNCHASINING HUQUQIY TAHLILI

Karimov Iftixor Ibragimovich
O‘zbekiston Repspublikasi Huquqni muhorfaza qilish akademiyasi Kriminalistika va sud ekspertizalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
Iftixorkarimov57@gmail.com

ANNOTASIYA: Maqolada diniy ekstremizm so‘zining tushunchasi, mohiyati, uning Respublikamizdagi, Mustaqil davlatlar xamdo‘stligi (MDH) davlatlari va xorijiy davlatlarning olimlari nuqtayi nazaridan tizimlashtirilgan holdagi qiyosiy huquqiy tahlili hamda uning jinoyat qonunchiligida tutgan o‘rni va ahamiyati yuzasidan muallif fikrlari bayon etilgan.

KALIT SO‘ZLAR: ekstremizm, ekstremizm tushunchasi, ekstremizm mohiyati, ekstremizm shakllari, ekstremist, ekstremistik guruh, ekstremistik material, ekstremistik tashkilot.

PRAVOVOY ANALIZ PONYATIYA RELIGIOZNOGO EKSTREMIZMA

Annotatsiya: V state izlojeno ponyatiye, sущnost slova ekstremizm, yego sistematizirovannыy sravnitelno-pravovoy analiz s tochki zreniya uchenых nashey respubliki, gosudarstv Sodrujestva nezavisimых gosudarstv (SNG) i zarubejnых gosudarstv, a takje mneniya avtora o yego roli i znachenii v ugolovnom prave.

Klyuchevые slova: ekstremizm, ponyatiye ekstremizma, sущnost ekstremizma, formы ekstremizma, ekstremist, ekstremistskaya gruppa, ekstremistskiy material, ekstremistskaya organizatsiya.

LEGAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF RELIGIOUS EXTREMISM

Annotation: The article describes the concept, the essence of the word extremism, its systematic comparative legal analysis from the point of view of scientists of our republic, the Commonwealth of Independent States (CIS) and foreign states, as well as the author's views on its role and meaning in criminal law.

Keywords: extremism, the concept of extremism, the essence of extremism, forms of extremism, extremism, extremist group, extremist material, extremist organization.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida yangi keskinlik o‘choqlari paydo bo‘lmoqda, millatlar va konfessiyalar o‘rtasida qarama-qarshiliklar kuchaymoqda, radikalizm va ekstremizm xavfi tobora ortib bormoqda. Mana shunday tahlikali sharoitda biz barqarorlik va xavfsizligimizga ziyon yetkazadigan har qanday tahdid va xatarlarga keskin qarshi turishimiz shart” deb aytgan edilar[1]. Darhaqiqat, ushbu xalqaro muammoga qarshi kurashish, uning nazariy-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish jamiyat, davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Diniy ekstremizm xususiyatidagi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik jihatlarini yoritishdan avval “ekstremizm” so‘zini tahlil etish, uning tushunchasini mohiyatini to‘liq anglab olish maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Zamonaviy akademik tadqiqotlarda “ekstremizm” tushunchasini nazariy tahlil qilish nafaqat huquq fanining, balki uni amaliyotda qo‘llashning asosiy va ayni paytda noaniq muammolaridan biridir.

Ekstremizm tushunchasi huquqiy javobgarlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, nafaqat ma’muriy, balki jinoiy, shuningdek, tegishli davlat hokimiyat organlarining uning oldini olish bo‘yicha asosiy faoliyat turi bilan bog‘liqdir [2].

Ekstremizm so‘zining ma’nosini ochib berishda aniq ta’rifning yo‘qligi, uning turli davlatlarda va turli davrlarda turlicha ta’lqin etilishiga bog‘liq bo‘lib, shu sababli hozirgi kunga qadar aniq bir to‘xtamga kelinmagan hamda umume’tirof etilgan norma mavjud emas.

Ushbu holatdan kelib chiqqan holda, ekstremizmga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar va turli davlatlarning qonunchiligida aks etishidan kelib chiqqan holda uni uch guruhga bo‘lib tadqiq etishni lozim topdik.

Birinchi guruh, ya’ni O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ekstremizmni konstitutsiyaviy tuzumga nisbatan xavf va tahdid darajasidan kelib chiqqan holda tadqiq qilishgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ekstremizmga (lot. extremus -eng oxirgi; o‘taketgan, ashaddiy; keskin) siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda usullar bilan yo‘l tutishga, keskin choralar ko‘rishga tarafdorlik deb ta’rif berilgan [3;29 b.].

O‘zbekiston Respublikasining 30.07.2022 yildagi O‘RQ-486-sonli “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga asosan **Ekstremizm** - ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi deb ta’rif berilgan [4].

Biroq mazkur ta’rifda ekstremizm siyosat va hokimiyat bilan bog‘lanib, hokimiyatga nisbatan zo‘rlik ishlatish yoki egallash, adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari sifatida baholangan. Biroq, «harakatlarning ashaddiy shakllari» qanday namoyon bo‘lishi aniq bayon etilmagan. Shuningdek, «ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi» aynan nimani qamrab olishining noaniqligi, har qanday harakat zo‘ravonlik harakatini nazarda tutmasa ham, uni ekstremizm sifatida baholanishiga olib kelishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda ekstremizm tushunchasi masalasida turlicha yondashuvlarni ko‘rish mumkin. Jumladan, K.A. Shermuhammedov va J.A.Karimovlar «ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») -jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlar»ni anglatishini [5;7-8b.], Z.Islomov, Sh.Ikramovlar esa ekstremizm - «jamiyat uchun nosog‘lom, uning taraqqiyotiga zid bo‘lgan, jamiyatda, fuqarolar va millatlar o‘rtasidagi munosabatlarda beqarorlik keltirib chiqaradigan keskin chora va fikrlarni ilgari suruvchi, ularni amalga oshirishga intiluvchi, uni yoqlovchi»dir deb ta’rif berishgan [6;65 b]. Mazkur ta’riflarda ekstremizmga bir tomonlama jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid har qanday harakatlar ekstremizm deb baholanishi mumkinligini ko‘zda tutilgan.

M.Rustambayev O‘zbekiston Respublikasi JKning maxsus qismiga bergan sharhida ekstremizm - eng keskin qarashlarga, borliqqa ishonch hissi (odatda, siyosatda), “o‘zining shak-shubhasiz haqligiga, haqiqatni faqat o‘zi bilishiga ishonch hissi so‘nggi choralarga - zo‘ravonlik harakatlariga moyilligi bilan ajralib turadigan diniy ekstremizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Bunda muayyan shaxs ham, boshqa dinga mansub ijtimoiy guruh ham yoki shu dinning o‘z vakillari tomonidan rad etilayotgan mazhabga mansub vakillari ham ta’sir ko‘rsatish ob’ekti sifatida tanlab olinishi mumkin” deb ta’rif bergan [7]. Biroq, ekstremizmning mazkur ta’rifida asosan uning diniy shakliga va murosasizlikka asosiy urg‘u berilgan bo‘lib, ushbu so‘zining lug‘iyaviy ma’nosi va mohiyati to‘liq ochib berilmagan.

R.Almeyev va F.Qosimovlar ekstremizmga O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, davlatning hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzish, zo‘rlik yoki

zo‘rlik ishlatishga da’vat qilish bilan bog‘liq holda irqiy, milliy, etnik yoki diniy adovat va ijtimoiy nizo qo‘zg‘atish, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlar, fikr va qarashlar ma’nosini anglatadi deb ta’rif berganlar [8; 35 b.].

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda O‘zbekistogn Respublikasida “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun mavjud bo‘lsada, jinoyat kodeksida “ekstremizm” nomli maxsus moddaning o‘zi mavjud emas. Ushbu jinoiy xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga oid oltinchi bo‘limi, Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga qaratilgan o‘n yettinchi bobining 244^1-moddasida belgilangan. Biroq, ushbu moddaning nomi “Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish” deb nomlanib, Unga ko‘ra, Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Ushbu moddasining 2-qismida bunday turdagi materiallarni tarqatish hamda jamiyatda qaror topgan xulq-atvor qoidalariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida dindan foydalanish, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi JKning 244^2-moddasida diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish uchun jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 244^3-moddasida diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasida (Kontrabanda) diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [9].

Biroq, yuqorida ko‘zda tutilgan moddalarning barchasida faqat ekstremizmning diniy turi uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, etnik, millatchilik va boshqa turlari uchun javobgarlikni nazarda tutmaydi. Ya’ni ekstremizmning mazmun mohiyati to‘liq ochib berilmagan hamda uning boshqa turlari uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan.

Ikkinchi guruh, ya’ni MDHga a’zo davlatlarning qonunchiligida ekstremistik faoliyat, jamiyatda umumiy qabul qilingan me’yorlarga yo‘naltirilgan raqibning fikriga nisbatan murosasizlikning eng muhim tashqi ko‘rinishi; muammoni hal qilishning ekstremal (kuchli) variantlariga moyillik; kundalik faoliyatda qimmatli, biznes vositasi sifatida konsensusni rad etish va shaxsning huquqlari va o‘z qadr-qimmatini rad etish sifatida bayon etilgan. Demak, ushbu qonunchilikda ekstremizm ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida siyosiy kurash shakllaridan biri sifatida talqin etilgan.

U o‘rnatilgan davlat tuzilmalarini va jamoat institutlarini inkor etish, barqarorlikka putur yetkazish, o‘z hokimiyat intilishlariga yerishish uchun o‘rnatilgan tartibni buzish istagi bilan tavsiflanadi.

A.G.Xlebushkinning so‘zlariga ko‘ra, “ekstremizm - bu noqonuniy faoliyat turi bo‘lib, uni amalga oshirish konstitutsiyaviy tuzum asoslariga yoki shaxslararo munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslariga jiddiy zarar yetkazishga olib kelishi mumkin” [10;2 b]. Huquqiy nuqtai nazardan, Ye.P.Sergun ekstremizmga shunday ta’rif beradi: bu “Konstitutsiyaviy tuzumining asosiy tamoyillariga va insonning davlat tomonidan

qo‘riqlanadigan demokratik huquq va erkinliklariga toqat qilmaslikka asoslangan ma’lum qarashlar va g‘oyalar tizimiga sodiqlik hamda bunday qarashlarni jinoiy vositalar orqali haqiqatga aylantirishga qaratilgan faoliyatga ichki tayyorlik” deb tavsiflaydi [11;8 b.].

I.A.Vasyukov tomonidan tahrirlangan ensklopedik lug‘atga ko‘ra ekstremizm - bu “ekstremal choralarga, qarashlarga (qoida tariqasida, siyosatda) rioya qilish” [12;8 b.]. S.I.Ojegov ekstremizmni (siyosiy) “o‘z maqsadlariga erishish uchun ekstremal qarashlarga sodiqlik, ekstremal choralarni qo‘llash (shu jumladan terroristik hujumlar va garovga olish)” deb talqin qiladi [13;340 b.]. Shu bilan birga, katta ensiklopedik lug‘atda ekstremizm “turli konfessiyalar, siyosiy tashkilotlar va ekstravagant ijtimoiy guruhlarning o‘ta aqidaparast va radikal g‘oyalari mafkurasi, nazariyasi va amaliyoti” deb ta’rif berilgan [14;967 b.]. Siyosiy ensiklopediyada G.Yu.Semiginning ta’kidlashicha, ekstremizm “g‘oya va siyosatda ekstremal qarashlar va harakatlarga sodiqlik” deb talqin etiladi [15].

Shunday qilib, zamonaviy lingvistik adabiyotlarda ekstremizm tushunchasiga ta’rif bir tomonlama berilgan va faqat siyosat bilan bog‘langan bo‘lib, ushbu talqinlar qonuniy mustahkamalanmagan, ya’ni huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi yoki javobgarlik keltirib chiqarmaydi.

14.06.2001 yildagi Shanhay xavfsizlik tashkilotining terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha konvensiyasida “ekstremizm” - hokimiyatni zo‘rlik bilan egallab olishga yoki hokimiyatni zo‘rlik bilan ushlab turishga, shuningdek davlatning konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, shuningdek jamoat xavfsizligiga zo‘rlik bilan tajovuz qilishga, shu jumladan noqonuniy harakatlar tashkil etishga qaratilgan har qanday harakat deb nomlangan [16].

Belorus Respublikasining 04.01.2007 yildagi 203-3-sonli “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida ekstremizm (ekstremistik faoliyat) “milliy sha’n va qadr-qimmatini kamsitish”, “irqiy, milliy, diniy adovat yoki nifoq, siyosiy yoki mafkuraviy adovat oqibatida ommaviy tartibsizliklar, bezorilik va buzg‘unchilik harakatlarini tashkil etish va amalga oshirish” sifatida talqin etiladi. Shuningdek, mazkur me’yoriy hujjatda ekstremistik faoliyat “ushbu faoliyat va harakatlarga ommaviy chaqiriqlar, ularni moliyalashtirish yoki amalga oshirishda boshqacha shakldagi ko‘maklashish”ni ham ekstremistik faoliyat sifatida talqin etiladi [17].

Qozog‘iston Respublikasining 18.02.2005 yildagi 31-sonli “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, ekstremizmni huquqiy talqin qilishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, “ekstremizm” va “ekstremistik faoliyat” tushunchalari qonun chiqaruvchi tomonidan aniqlashtirilmagan. Ushbu aktda “ekstremistik harakatlar - ekstremistik maqsadlar uchun harakatlarni bevosita amalga oshirish, shu jumladan bunday harakatlarni sodir etishga ommaviy chaqiriqlar, targ‘ibot, tashviqot va ekstremistik tashkilotlarning ramzlarini ommaviy namoyish qilishdir” deb ko‘rsatilgan.

Shuningdek, qonunda “ekstremizm” deb e’tirof etilishi uchun nafaqat yuqorida ko‘zda tutilgan harakatlarni sodir etishi, balki quyidagi maqsadlarni ko‘zlovchi harakatlarni sodir etishi ham ekstremizm deb topiladi:

- Qozog‘iston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligini buzish, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘ravonlik bilan o‘zgartirish va boshqalar;

- irqiy, milliy va qabilaviy adovatni qo‘zg‘atish, shu jumladan zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlikka da’vatlar (bu yerda “milliy ekstremizm” alohida ajratilgan);

- diniy adovat yoki nafratni qo‘zg‘atish, shu jumladan zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlikka chaqirish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar, shuningdek fuqarolarning xavfsizligi, hayoti, sog‘lig‘i, ma’naviyati yoki huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi har qanday diniy amaliyotdan foydalanish (diniy ekstremizm) [18].

MDH davlatlaridan farqli o‘laroq, “ekstremizm” va “ekstremistik faoliyat” tushunchalari Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida bir biridan ajratilgan va mazmunan aniqlashtirilgan. Shu munosabat bilan bir

qator olimlar huquqiy ma'noda "ekstremizm" atamasini aniq mazmunini ishlab chiqish zarur deb hisoblaydilar [19;15 b.].

Shunday qilib, RFning 25.07.2002 yildagi 114-FQ-sonli "Ekstremistik faoliyatga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida ko'ra, ekstremistik faoliyat:

- terrorizm va boshqa terrorchilik faoliyatlarini ommaviy oqlash;
- zo'ravonlik yoki undan foydalanish tahdidi bilan birgalikda, fuqarolarning saylov huquqlari va referendumda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish yoki yashirin ovoz berish huquqini buzish;
- natsistlar atributlari, ramzlari va natsistlar atributlariga o'xshash atributlar yoki belgilarni targ'ibot qilish va ommaviy namoyish qilish;
- Rossiya Federatsiyasining davlat idorasini yoki Rossiya Federatsiyasining davlat mansabini egallab turgan shaxsni o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida unga nisbatan yolg'ondan ayblov qo'yish ushbu moddada ko'rsatilgan jinoyat deb baholanadi [20].

Ko'rinib turibdiki, qonun chiqaruvchi ekstremizmga nafaqat ekstremistik yo'nalishning zo'ravonlik usullarini, balki "terrorizmni ommaviy oqlash", shuningdek, "Rossiya Federatsiyasining davlat idorasini yoki davlat lavozimini egallagan shaxsni ayblash"ni nazarda tutadi. Rossiya Federatsiyasining ta'sis etuvchi sub'ekti o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida ushbu moddada ko'rsatilgan va jinoyat hisoblanadigan harakatlarni sodir etganligi uchun ham javobgarlik belgilanganligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, ko'rsatilgan qonunda ekstremistik faoliyat "natsistlarning atributlarini targ'ib qilish va ommaviy namoyish qilish"ni o'z ichiga oladi (ushbu qoida Rossiya Federatsiyasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Shanxay konvensiyasi qoidalariga mos kelmaydi).

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ekstremizmning mohiyatiga bunday yondashuv hozirgi kunda huquqni muhofaza qilish amaliyotida doimiy ilmiy munozaralar va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Qayd etish lozimki, ekstremizmga qarshi kurash sohasidagi Rossiya qonunchiligida ekstremizmni radikal va zo'ravonlik harakatlari yoki uning dasturini joriy qilish orqali davlatning konstitutsiyaviy tuzumini o'zgartirishga qaratilgan ekstremal qarashlar va g'oyalarga asoslangan mafkuralar bir biridan ajratib ko'rsatilmagan.

Ekstremizmni ta'riflashga bunday yondashuv Moldava Respublikasining 21.02.2003 yilda qabul qilingan 54-XV-sonli "Ekstremistik faoliyatga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida ham o'z aksini topgan [21].

Uchinchi guruh, ya'ni xorijiy davlatlarda ekstremizm keskin fikr sifatida baholanib, uning zo'ravon ekstremizm turi uchungina jinoiy javobgarlik belgilanganligi bilan ahamiyatlidir.

Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining 2003-yilda qabul qilingan rezolyutsiyasida quyidagicha ta'rif mavjud: "Ekstremizm – parlament demokratiyasi tamoyillarini ochiq yoki pinxona inkor etuvchi hamda murosasizlik, begonalashtirish, ksenofobiya, antisemitizm va millatchilik mafkurasi va amaliyotiga asoslangan siyosiy faoliyat shaklidir [22].

Mazkur terminni birinchi marta 1838 yilda katta falsafiy lug'atda nemis olimi Vilgelm Traugotta ishlatgan bo'lib, unga ko'ra "ekstremistlar o'rtada emas chetda bo'lishni xoxlovchilar" deb tushunilgan. 1950 yillarda ushbu termin Angliya davlatida ham erkin foydalanilgan, partiya yetakchisi Bosh vazir lord Palmersonni ekstremist sifatida ko'rishgan. AQShda ham bu termindan foydalinilib, (1861-1865) yillarda dushman tarafga nisbatan qo'llanilgan. 1870 yilda Fransiyada ushbu termindan "o'ng so'l" va "chap so'l" siyosiy kuchni tavsiflashda ishlatishgan [23].

Doktor Piter T. Koulman (Peter T. Coleman) va Andrea Bartoli (Andrea Bartoli) muallifiligidagi "Ekstremizmga murojaat" («Addressing Extremism») asarida ekstremizmni umume'tirof etilganlardan uzoq

bo‘lgan faoliyat, e’tiqod, munosabat, his-tuyg‘ular, harakatlar va strategiyalar sifatida qarashni taklif qildilar va ushbu yo‘nalishda batafsilroq ma’lumot berib o‘tganlar [24].

Mazkur olimlarning fikrlariga ko‘ra, ekstremizmni aniqlashda kuchlar tafovuti ham muhimdir, chunki mojarolar vaqtida kuchsizroq guruh a’zolarining harakatlari ko‘pincha o‘z hokimiyatini himoya qiladigan kuchliroq guruh a’zolarining harakatlaridan ko‘ra ekstremalroq bo‘lib ko‘rinadi; shuningdek, kuchsizroq guruhlar zo‘ravonlikning bevosita va epizodik shakllarini (masalan, xudkush portlashlar) afzal ko‘radi, ҳz hokimiyatini himoya qilayotgan guruhlar esa ko‘proq tuzilgan zo‘ravonlik shakllarini (masalan, qiynoqlardan yashirin foydalanish yoki politsiya zo‘ravonligini norasmiy ravishda sanksiyalash) afzal ko‘radi.

Odatda, ayrim turdagi ekstremistik harakatlar kuzatuvchining qadriyatlari, siyosati, ma’naviyatidan kelib chiqib, adolatli deb topilishi va ma’naviy jihatdan oqlanishi mumkin (masalan, ijtimoiy erkinlik uchun kurash va h.k), boshqalari esa adolatsiz va ma’naviy qoralanishi ("terrorizm") mumkin. Bu baholovchining qadriyatlari, siyosiy e’tiqodlari, shuningdek, uning shaxs bilan munosabatlariga bog‘liq. Muayyan shaxs tomonidan amalga oshirilgan harakatga baho berishda tomonlar o‘z manfaati va shart-sharoitlardan (jahon hamjamiyatining fikri, inqiroz, "tarixiy hisob-kitoblar" va boshqalar) kelib chiqib turlicha fikr berilishi mumkin. Ya’ni, tomonlardan biri ushbu harakatni ekstremizm, boshqasi vaziyatdan kelib chiqqan holda qabul qilingan to‘g‘ri qaror deb baho berishi mumkin. Shunday qilib, ekstremistik xatti-harakatlarning hozirgi va tarixiy kelib chiqishi ularga nisbatan bizning nuqtai nazarimizni o‘zgartirishi mumkin.

Shunday qilib, G‘arb olimlarining fikrlariga ko‘ra, ekstremizmni belgilashda mavjud hokimiyatning unga nisbatan munosabati muhim ahamiyatga ega. Ko‘p hollarda mavjud siyosiy tuzumni qo‘llab-quvvatlovchi guruhlar tomonidan ularga qarama-qarshilikdagi kuch guruhlari a’zolarining faoliyati ko‘proq ekstremistik deb hisoblanadi.

Shunday qilib, ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi yuridik adabiyotlar va qonun hujjatlarining konseptual va terminologik tahlili ekstremizmning ayrim belgilarini quyidagicha shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, ekstremizm nafaqat zo‘ravonlik (qoida tariqasida, radikal), balki zo‘ravonliksiz usullarni ham qo‘llashni nazarda tutadi: ekstremistik materiallarni tarqatish, milliy, diniy yoki etnik adovat va nifoqni qo‘zg‘atish.

Ikkinchidan, ekstremizm irqiy, milliy, diniy, gender, lingvistik yoki siyosiy sabablarga ko‘ra ustunlikka asoslangan mafkuraviy e’tiqodlarni (ekstremistik jinoyatlar va qonunbuzarliklarning motivi va maqsadlari bo‘lib xizmat qiluvchi) birlashtirgan tizimli ijtimoiy hodisa bo‘lib, ushbu xususiyat yuridik amaliyot uchun xosdir [25; 39-97 b.].

Uchinchidan, ekstremizm qonun bilan taqiqlangan harakatlarni (ma’muriy yoki jinoiy huquqni) nazarda tutadi.

To‘rtinchidan, ekstremizm, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlatning demokratik asoslarini buzuvchi maqsadlarga erishishga qaratilgan harakatlardir.

Boshqacha qilib aytganda, har bir alohida holatda ekstremizmning mohiyati turli yo‘llar va usullarda namoyon bo‘lishi mumkin, bu esa muayyan davlat rivojlanishining tarixan shakllangan xususiyatlarini hisobga olgan holda turli huquqiy vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

Yuqoridagi tahlil qilingan materiallarga asoslanib, biz quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

– ekstremizmga qarshi kurashish sohada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, «ekstremizm» tushunchasi siyosatda, fanda va qonunchilikda turlicha xarakterga ega. Shuningdek, yuridik adabiyotlarda ekstremizmning mohiyatini, uning sub’ekti, maqsadi va motivlarini tushunishda olimlar o‘rtasida yagona fikr mavjud emas;

– ilmiy jamoatchilik ekstremizmni keng va tor ma’noda ko‘rib chiqib, keng ma’noda ekstremizm «muayyan maqsadlarga erishish uchun keskin qarashlarga asoslanish», tor ma’noda – «muxoliflarni mag‘lub etish va ularni yo‘q qilishga qaratilgan faoliyat» sifatida ta’riflanadi;

– tahlillar asosida ekstremizmning quyidagi belgilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: murosasiz keskin qarashlarga asoslanish va uni jamiyatda tarqatish; mafkuraviy, diniy yoki siyosiy maqsadlarga erishishni ko‘zlash; zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlash yoki undan foydalanish; belgilangan huquqiy norma va jamiyatda qabul qilingan axloq normalarni qabul qilmaslik yoki ulardan chetga chiqish; ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shakldagi adovatni qo‘zg‘atish; milliy xavfsizlikka tahdidlarni keltirib chiqarish;

– «ekstremizm» tushunchasi «terrorizm» tushunchasiga nisbatan keng bo‘lib, ushbu tushunchalar o‘rtasidagi «chegara» shaxs, guruh va tashkilotning faol xatti-harakatlaridagi zo‘ravonlikni qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi;

– ekstremizm o‘z mazmun - mohiyatiga ko‘ra, har qanday ko‘rinishda: u «keskin qarash» yoki «faol harakat» shaklida bo‘lsin, u konstitutsiyaviy tuzumga va davlat xavfsizligiga bevosita tahdidni keltirib chiqaradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tahlillar asosida ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar tushunchasi va tarkibi qonun hujjatlarida aniq belgilanmaganligi hamda bu borada yuridik adabiyotlarda turli-tuman fikr va mulohazalar bildirilgan bo‘lib, ko‘p holatlarda uni terrorizm bilan bog‘liq holda va undan aniq bir farqini ko‘rsatmagan holda tasvirlashgan. Ushbu holat ekstremizm va terrorizm yo‘nalishidagi jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va unga qarshi kurash yo‘nalishida metodika yaratishda noaniqliklar keltirib chiqarishga olib kelmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, kelgusida ekstremizm tushunchasini turli xil talqin qilinishini oldini olish maqsadida, ekstremizm tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

«**Ekstremizm** – shaxs yoki guruhning muayyan g‘oya (siyosiy, diniy, millatchilik va h.k.) atrofida izchil birlashuvi va ushbu g‘oyani keskin, murosasiz usullardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadini ifodalovchi harakatlar yig‘indisidir», – deb ta’rif berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Tulepov Islom va aqidaparast oqimlar. – T., 2014. – B.14.
2. O.V.Karyagina, I.V.Burov “Ponyatiye i sushnost ekstremizma: sravnitelno-pravovoy analiz”. URL. https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-suschnost-ekstremizma-sravnitelno-pravovoyanalizhl=ru&ct=clnk&gl=ru
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 29-b. URL. https://n.ziyouz.com/books/uzbek
4. _tilining_izohli_lugati/%20E.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh., 2018 yil 30 iyul, O‘RQ-489-son
6. K.A.Shermuhammedov, J.A.Karimov “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” // O‘quv qo‘llanma. – T. 2018. – B.7-8.
7. Z.Islomov, Sh.Ikramov. Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot dushmani // O‘quv-amaliy qo‘llanma. –T. 2015. – B. 65.
8. M.Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasi JKning maxsus qismiga bergan sharhi.
9. R.V.Almeyev, F.X.Kasымov. V plenu illyuzii: religioznыy ekstremizm - ugroza miru i stabilnosti - T.: Gafura Gulyama, 2004, - B. 35.
10. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. maxsus qism

11. A.G.Xlebushkin “Publichnыe prizыvы k osuщestvleniyu deystviy, napravlennыx na narusheniye territorialnoy tselostnosti Rossiyskoy Federatsii”. M., 2010. B. 2.
12. Ye.P. Sergun Ekstremizm v rossiyskom ugolovnom prave: avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. Tambov, 2009. B. 8.
13. Slovar inostrannыx slov. Moskva., 2001. 622-bet.
14. S.I. Ojegov Tolkovыy slovar russkogo yazыka / pod red. L.I. Skvorsova. M., 2009. B.340.
15. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar: filosofiya, sotsiologiya, religiya, ezoterizm, politekonomiya / glavn. nauch. red. i sost. S.Yu. Solodovnikov. Minsk, 2002. B.967.
16. Politicheskaya ensiklopediya / pod. red. G.Yu. Semigina. M., 2000. T. 2.
17. Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha Shanxay Konvensiyasi. 14.06.2001 yil.
18. Zakon Respubliki Belarus ot 04.01.2007 №203-3 «O protivodeystvii ekstremizmu» URL. http://www.pravo.by
19. Zakon Respubliki Kazaxstan ot 18 fevralya 2005 goda № 31-III «O protivodeystvii ekstremizmu». URL. https://online.zakon.kz/ Document/?doc
20. A.A.Kozlov Ekstremizm v srede peterburgskoy molodeji: analiz i problemы profilaktiki. SPb., 2003. B. 15.
21. Federalnыy zakon RF ot 25 iyulya 2002 goda № 114-FZ O protivodeystvii ekstremistskoy deyatelnosti. https://docs.cntd.ru/document
22. /901823502?section=text
23. Zakon Respubliki Moldova ot 21 fevralya 2003 goda № 54-XV O protivodeystvii ekstremistskoy deyatelnosti. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30545614
24. RYeZOLYuSIYa 1344 (2003). Ob ugroze dlya demokratii so storonы ekstremistskix partiy i dvijeniy v Yevrope.
25. V.I.Pogorelsev. Zarojdeniye i razvitiye ekstremizma v mire i v Rossii. URL. https://cyberleninka.ru/article/n/zarozhdenie-i-razvitie-ekstremizma-v-mire-i-v-rossii.
26. Coleman Peter T.; Bartoli Andrea Addressing Extremism (angl.) (PDF). The International Center for Cooperation and Conflict Resolution (ICCCR), Teachers College, Columbia University // The Institute for Conflict Analysis and Resolution (ICAR), George Mason University. Arxivirovano iz pervoistochnika 5 fevralya 2012. Provereno 10 aprelya 2011.
27. A.B.Karyagina Mejnatsionalnыe konfliktы kak faktor rasprostraneniya ekstremizma v Yujnom federalnom okruge: problemы i puti preodoleniya // Aktualnыe problemы ugolovnoy i ugolovno-protsessualnoy politiki Rossiyskoy Federatsii: materialы Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. Omsk, 2014. S. 93-97.